

“O‘zbekiston texnologik metallar
kombinati” AJ yagona aksiyadorining
2025-yil 11 03 dagi

7 - sonli Qarori bilan

“TASDIQLANGAN”

**“O‘ZBEKISTON TEXNOLOGIK METALLAR KOMBINATI”
AKSIYADORLIK JAMIYATI
IJROIYA ORGANI (BOSHQARUVI) TO‘G‘RISIDAGI
NIZOMI**

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur Nizom “O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” aksiyadorlik jamiyatni (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) Ijroiya organi - Boshqaruvining va Boshqaruv raisining maqomini, ularning vakolat doirasini, saylash va tayinlash tartibini, majburiyatlarini, huquqlari va javobgarliklarini aniqlaydi, ularning ishini va faoliyat tartibini belgilab beradi.

1.2. Nizom O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjalariiga va Jamiyat Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.3. Boshqaruv Jamiyatning kollegial Ijroiya organi bo‘lib hisoblanadi va Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi.

1.4. Jamiyatning Kuzatuv kengashi, aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi, Ustavi, jamiyat faoliyatining asosiy vazifalari, yo‘nalishlari va maqsadi, rivojlantirish rejasi tomonidan qo‘yilgan topshiriqlarni so‘zsiz bajarish uchun Boshqaruv va Boshqaruv raisi ushbu Nizom bilan o‘zining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bo‘yicha mustaqil qarorlar qabul qiladilar.

1.5. Boshqaruvning asosiy vazifasi bo‘lib iqtisodiy barqarorlikni saqlash siyosatini o‘tkazish, metall bo‘yicha jahon bozorlariga kirib borish, u yerda mustahkam o‘rinni egallash, shuningdek, Jamiyatning daromadini ko‘paytirish hisoblanadi.

1.6. Mazkur Nizomda “Aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi” so‘z birikmasi qo‘llanilganda, Jamiyat aksiyadorlarining umumiyligi yig‘ilishi yoxud qonun hujjalariiga muvofiq, aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi vakolat doirasiga kiradigan masalalar bo‘yicha bir o‘zi qaror qabul qilish huquqiga ega bo‘ladigan bitta aksiyador - Jamiyat barcha oddiy aksiyalarining aksiyadori (keyingi o‘rinlarda – Bosh aksiyador) nazarda tutiladi.

2. BOSHQARUVNING VAKOLAT DOIRASI

2.1. Jamiyat Ijroiya organining vakolatiga Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishining va Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

2.2. Boshqaruv a’zolari lavozim yo‘riqnomalari bilan aniqlangan vakolat doirasida, ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi (kontrakti) shartlari, aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishining, Kuzatuv kengashining, Boshqaruvning qarorlari va Jamiyat Boshqaruvi raisining ko‘rsatmalariga ko‘ra harakat qiladi.

2.3. Jamiyat Boshqaruvi a’zolarini moddiy rag‘batlantirish Jamiyat faoliyati samaradorligiga qarab amalga oshiriladi.

2.4. Jamiyatning Kuzatuv kengashi, aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi, Ustavi, jamiyat faoliyatining asosiy vazifalari, yo‘nalishlari va maqsadi, rivojlantirish rejasi tomonidan qo‘yilgan topshiriqlarni so‘zsiz bajarish uchun Boshqaruv va Boshqaruv raisi ushbu Nizom bilan o‘zining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bo‘yicha mustaqil qarorlar qabul qiladilar.

2.5. Boshqaruv vakolati doirasiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyat faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini va ularni amalga oshirish

bo'yicha istiqbolli rejalarini, shuningdek, Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda Jamiyatni o'rtga muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini ishlab chiqish va Kuzatuv kengashiga ko'rib chiqish uchun taqdim qilish;

- Jamiyatning daromadini va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida kundalik xo'jalik siyosatini tuzib chiqish va amalga oshirish;

- Jamiyatning biznes-rejasida ishlab chiqilgan ishlab chiqarish dasturini shakllantirish va tasdiqlash, Jamiyat tuzilmaviy bo'linmalarining ishlab chiqarish hajmini aniqlash;

- Jamiyatning ijtimoiy rivojlanish dasturini amalga oshirish bo'yicha tavsiyalarni ko'rib chiqish va ishlab chiqish;

- ishchilarning mehnat muhofazasini ta'minlash va ekologiya talablariga rionda qilish;

- Kuzatuv kengashi va aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi muhokamasiga kiritiladigan masalalar bo'yicha axborotlar, materiallar va takliflarni tayyorlash;

- Jamiyatning biznes-rejasini va moliyaviy-xo'jalik faoliyatining boshqa dasturlarini ishlab chiqish;

- Jamiyatning yillik ish istiqbollari, yillik balansi, foyda va zararlar haqidagi hisobotlar va boshqa kerakli hisobot hujjatlarini ishlab chiqish va Kuzatuv kengashiga taqdim qilish;

- foydani taqsimlash va zararni qoplash bo'yicha takliflarni Kuzatuv kengashi va aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishiga taqdim qilish;

- aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida va Kuzatuv kengashida ularning vakolat doirasiga kiritilgan masalalar va hujjatlar bo'yicha qaror qabul qilish uchun ko'rib chiqiladigan materiallarni tayyorlashda ishtirok etish;

- tijorat sirini (maxfiy axborot hisoblangan) tashkil qilgan ma'lumotlarning tarkibini va hajmini, ularni himoya qilish tartibini aniqlash;

- Jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan yirik innovatsiya va investitsiya loyihalari va dasturlarini oldindan ko'rib chiqish;

- bitimlarni (shartnomalarni) tuzish to'g'risida, jumladan, Jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitimlarni (shartnomalarni) tuzish to'g'risida qaror qabul qilish, agarda, bunday bitimlarning (shartnomalarning) qiymati bitimni tuzish to'g'risida qaror qabul qilingan sanaga Jamiyat buxgalteriya hisobotining ma'lumotlari bo'yicha aniqlangan Jamiyatning sofabaktivlari qiymatining uch foizdan o'n besh foizgachasini tashkil etsa;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining homiylik yordami ko'rsatish to'g'risidagi qarorlarini (Farmonlari, Qarorlari, Farmoyishlari, bayonnomaqarorlari, topshiriqlari va h.k.) ijro etish;

- Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlaridagi ishtiroki bilan bog'liq bo'lgan beg'araz bitimlarini tuzish to'g'risida (jumladan, hayriya, hayr-ehson qilish, hadya, homiylik yordami), a'zolik badallarini kiritish (boshqa xarajatlarni amalga oshirish) to'g'risida qaror qabul qilish, agar bunda, barcha to'lovlarining umumiyligi summasi chorak davomida O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan eng kam oylik ish haqining 15000 baravaridan ortiq bo'lmasa,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining homiylik yordamini ko‘rsatish to‘g‘risidagi qarorlarining (Farmonlar, Qarorlar, Farmoyishlar, bayonnomma qarorlari, topshiriqlari va h.k.) ijrosi bo‘yicha qarorlar qabul qilish hollari bundan mustasno;

- Jamiyatning ichki tashkiliy va boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish to‘g‘risidagi takliflarni tayyorlash va asoslash;

- Boshqaruv vakolat doirasiga taaluqli masalalar bo‘yicha Jamiyat ichki hujjatlarini tasdiqlash;

- Boshqaruv raisi tomonidan Boshqaruvga ko‘rib chiqish uchun taqdim etilgan, Jamiyat kundalik faoliyatining boshqa masalalarini hal qilish.

2.6. Boshqaruv har chorakda yillik biznes-rejaning bajarilishi, Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida Kuzatuv kengashining oldida hisobot beradi.

2.7. Boshqaruv mutaxassislarning ishtirokini, jumladan, ekspertlarning ishtirokini talab qiladigan Jamiyat faoliyatining alohida yo‘nalishlari bo‘yicha masalalarni hal qilish uchun o‘z tarkibidagi va jalb qilingan shaxslardan iborat doimiy yoki vaqtinchalik ishchi guruhlarini tashkil qilishi mumkin.

3. BOSHQARUVNI TASHKIL QILISH TARTIBI

3.1. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish Boshqaruv raisi tomonidan amalga oshiriladi. Jamiyat Boshqaruvi ushbu Nizomga muvofiq bir yil muddatga saylanadigan 7 ta a‘zodan tashkil topadi.

Jamiyat Kuzatuv kengashining tavsiyasiga ko‘ra jamiyat Ijroiya organi (Boshqaruvi) rahbari – Boshqaruv raisini yoki boshqaruv a‘zolarini tayinlash, qoida tariqasida, chet ellik menejerlar ishtirok etishi mumkin bo‘lgan tanlov bo‘yicha saralash asosida amalga oshirilishi mimkin. Jamiyat Boshqaruvining raisi aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishida saylanadi.

Jamiyat Boshqaruv raisining tavsiyasiga ko‘ra jamiyat Ijroiya organi boshqaruv a‘zolarini tayinlash, qoida tariqasida, chet ellik menejerlar ishtirok etishi mumkin bo‘lgan tanlov bo‘yicha saralash asosida amalga oshirilishi mimkin. Jamiyat Boshqaruv a‘zolari aksiyadorlarning Kuzatuv kengashining yig‘ilishida saylanadi.

Boshqaruvni Boshqaruv raisi, u bo‘lmagan taqdirda uning (birinchi) o‘rinbosarlaridan biri boshqaradi.

3.2. Boshqaruv tarkibiga lavozim bo‘yicha Jamiyat Boshqaruvi raisi va uning o‘rinbosarlari, Boshqaruvi raisining taqdimnomasiga ko‘ra, bosh mutaxassislar, tuzilmaviy bo‘linmalarning rahbarlari va Jamiyatning boshqa rahbar xodimlari kirishlari mumkin.

3.3. Jamiyat Boshqaruvi tarkibiga kiruvchi shaxsning vakolatlari muddatidan avval tugatilganda, uning vazifasini vaqtinchalik bajaruvchi shaxs (nomzod)ni Kuzatuv kengashi tomonidan ko‘rib chiqilgungacha yoki tegishli qarori bilan tayinlanishiga qadar yo‘l qo‘yiladi.

3.4. Kuzatuv kengashi tomonidan Boshqaruv a‘zoligiga nomzodlarni ko‘rib chiqish umumiyligi ro‘yxat asosida yoki nomzodlarni shaxsan qatnashishi orqali amalga oshiriladi. Boshqaruv tarkibiga nomzodlarni ko‘rsatishda Boshqaruv raisi

kontrakt tuzish shartlarini, boshqaruv faoliyati uchun to‘lanadigan haq miqdorini va kontraktni tuzishga nomzodning shaxsiy arizasi bilan tasdiqlangan roziligini ko‘rsatib o‘tadi.

3.5. Boshqaruv a’zoligiga nomzodlar Kuzatuv kengashning yig‘ilishida o‘z nomzodlari ko‘rib chiqilayotgan paytda qatnashishlari mumkin.

3.6. Boshqaruv a’zolarining har birining huquqlari, majburiyatları va javobgarliklari amaldagi qonunchilik, boshqa me’yoriy hujjatlar va shaxsiy lavozim majburiyatları shartlari bilan belgilanadi.

3.7. Boshqaruv raisi ixtiyoriy mutaxassisni Boshqaruvdagi vakant lavozimi vazifalarini bajarish uchun yaqin oradagi Kuzatuv kengashining yig‘ilishigacha vaqtincha bajarishga yo‘l qo‘yish huquqiga ega. Boshqaruv a’zosi vazifasini vaqtincha bajarib turuvchi shaxs bilan kontrakt tuzilmaydi.

3.8. Aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi Boshqaruv raisi tomonidan mehnat shartnomasining shartlari buzilgan taqdirda, Aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini tugatish huquqiga ega.

Boshqaruv raisi lavozimidan ozod etilgan (bo‘shatilgan) taqdirda, Boshqaruv raisligiga shaxs (nomzod) Bosh aksiyador tomonidan tasdiqlanganidan so‘ng, Boshqaruv raisini saylash uchun Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig‘ilishini o‘n kun muddatdan kechiktirmagan holda o‘tkazilishi lozim.

3.9. Boshqaruv a’zolari tayinlangandan so‘ng, tegishli lavozim vazifalarini bajarish bo‘yicha ularning har biri bilan mehnat shartnomasi (kontrakti) tuziladi. Jamiyat nomidan shartnomasi Kuzatuv kengashi vakolat bergen shaxs tomonidan imzolanadi.

3.10. Boshqaruv raisi ishga yollash to‘g‘risidagi shartnomalar (kontraktlar) **Aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi** qaroriga asosan tuziladi (uzaytiriladi) yoki tugatiladi (to‘xtatiladi).

3.11. Boshqaruv a’zolarini ishga yo‘llash to‘g‘risidagi shartnomalar (kontraktlar) **Kuzatuv kengashi yig‘ilishi** qaroriga asosan tuziladi (uzaytiriladi) yoki tugatiladi (to‘xtatiladi).

3.12. Jamiat Boshqaruv Raisi vazifasini bajarish bo‘yicha uning funksiyalari, majburiyatları, huquqlari, javobgarliklari belgilab berilgan mehnat shartnomasi (kontrakti) Jamiat nomidan Kuzatuv kengashining Raisi yoki Kuzatuv kengashi vakolat bergen shaxs tomonidan imzolanadi.

3.13. Boshqaruv a’zolarining har birining huquqlari, majburiyatları va javobgarliklari amaldagi qonunchilik, boshqa me’yoriy hujjatlar va shaxsiy lavozim yo‘riqnomalaridagi shartlari bilan belgilanadi.

3.14. Boshqaruv Raisi - ixtiyoriy mutaxassisni Boshqaruvdagi vakant lavozimi vazifalarini bajarish uchun yaqin oradagi aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishigacha vaqtincha bajarishga yo‘l qo‘yish huquqiga ega. Boshqaruv a’zosi vazifasini vaqtincha bajarib turuvchi shaxs bilan kontrakt tuzilmaydi.

3.15. Aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi Boshqaruv raisi tomonidan mehnat shartnomasining shartlari buzilgan taqdirda, Aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini tugatish huquqiga ega.

Boshqaruv raisi lavozimidan ozod etilgan (bo‘shatilgan) taqdirda,

Boshqaruv raisligiga (nomzod) shaxs Bosh aksiyador bilan kelishgandan so'ng Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida o'n kun muddatdan kechiktirmagan holda ko'rib chiqilishi lozim.

4. BOSHQARUV RAISI

4.1. Jamiyat Boshqaruv raisi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida **tayinlanadi** va bu lavozimga Bosh aksiyador bilan kelishgan holda Boshqaruv raisini tayinlash tanlov asosida o'tkaziladi, bunda xorijiy menedjerlar ham ishtirok etishlari mumkin.

Boshqaruv raisini tanlov asosida tanlab olishning tartib va shartlari o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

4.2. Boshqaruv raisi Jamiyat kundalik faoliyatining barcha tezkor masalalarini mustaqil hal qiladi, Jamiyat aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Kuzatuv kengashi yoki Boshqaruv vakolatiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

4.3. Jamiyat Boshqaruv raisi:

- Boshqaruv faoliyatini tashkil qiladi, Boshqaruv a'zolari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi, Boshqaruv tomonidan asoslangan va samarali qarorlar qabul qilinishini ta'minlaydi, Boshqaruv majlislarida raislik qiladi, Jamiyat Ustavi, shuningdek, mazkur Nizomda nazarda tutilgan boshqa masalalarni hal qiladi;

- Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, uning manfaatlarini ifodalaydi, shtatlarni tasdiqlaydi, Jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

- Bitimlarni (shartnomalarni) tuzish to'g'risida, jumladan, Jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitimlarni (shartnomalarni) tuzish to'g'risida qaror qabul qiladi, agarda bunday bitimlarning (shartnomalarning) qiymati bitimni tuzish to'g'risida qaror qabul qilingan sanaga Jamiyat buxgalteriya hisobotining ma'lumotlari bo'yicha aniqlangan Jamiyatning sof aktivlari qiymatining uch foizidan ortiq bo'lmasa;

- Jamiyatning ishlab-chiqarish va moliyaviy faoliyatiga javob beradi;

- Jamiyatning kundalik faoliyatiga taaluqli bo'lgan, Jamiyat aksiyadorlar umumiy yig'ilishining, Kuzatuv kengashining va Boshqaruvining vakolati doirasiga kirmaydigan masalalar bo'yicha mustaqil qaror qabul qiladi.

4.4. Jamiyat Boshqaruv raisining vakolat doirasiga quyidagilar ham kiradi:

- O'zbekiston Respublikasida va chet ellarda shartnomalar tuzish, bank va moliya operatsiyalarini amalga oshirish, shuningdek bunday operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha boshqa shaxslarga ishonchnomalar berish;

- Jamiyatning moliyaviy, investitsiya, ishlab chiqarish dasturlarini amalga oshirilishinitashkil qilish;

- Jamiyatning mulki va vositalarini boshqarish;

- O'zbekiston Respublikasi va boshqa mamlakatlarning yuridik va jismoniy shaxslariga nisbatan Jamiyat nomidan da'vo bo'yicha qaror qabul qilish;

- banklarda hisob, valyuta va boshqa varaqlarni ochish;

- Jamiyatning ijtimoiy rivojlanish masalalarini hal qilish;
- Jamiyat oldiga qo'yilgan masalalarni bajarish uchun boshqa vazifalarni bajarish;
- mehnat qonunchiligiga muvofiq Jamiyatning ishchilar bilan mehnat munosabatida ish beruvchining huquq va majburiyatlarini amalga oshirish;
- Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq Jamiyat ishchilari lavozim maoshlarining miqdorini belgilash, xodimlar mukofot pulining miqdorini aniqlash;
- Jamiyat korporativ maslahatchisi lavozimiga nomzodlarni kiritish;
- Jamiyat Boshqaruv organlarining qarorlarini bajarilishini ta'minlash va nazorat qilish;
- qonunchilik, aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi, Kuzatuv kengashi va Boshqaruv tomonidan Boshqaruv raisiga yuklatilishi mumkin bo'lgan boshqa vazifalarni bajarish.

4.5. Boshqaruv raisining aniq huquq va majburiyatlar uning lavozim yo'riqnomasida ko'rsatib o'tiladi va u bilan tuzilgan shartnomada aytib o'tiladi.

5. BOSHQARUV A'ZOLARIKA NISBATAN QO'YILADIGAN MALAKA TALABLARI

5.1. Jamiyat Boshqaruvi a'zosi:

5.1.1. Jamiyatning asosiy boshqaruv funksiyalaridan birini amalga oshirishi.

5.1.2. Oliy ma'lumotga ega bo'lishi.

5.1.3. Quyidagi sohalardan birida bilimga ega bo'lishi va (yoki) yetarli tajribaga ega bo'lishi:

- korxonani boshqarish;

- moliyaviy menejment yoki buxgalteriya hisobini yuritish;

- korporativ boshqaruv;

- kon-qazib chiqarish va metallurgiya sanoatida ishlab chiqarish texnologiyasi.

5.1.4. Tegishli qonunlar, qarorlar va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar, maxsus standartlar, texnik reglamentlar va qoidalar bo'yicha bilimga ega bo'lishi.

5.1.5. Jamiatning ishlab-chiqarish-xo'jalik va moliyaviy-iqtisodiy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning bozor kon'yukturasini, Jamiatning faoliyati sohasidagi ilg'or (mahalliy va chet el) tajribalarni, rivojlanishning joriy va istiqbolli rejalarini bilishi.

5.1.6. Jamiat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan sohada yoki professional sohada uch yildan kam bo'limgan rahbarlik lavozimlarida amaliy tajribaga ega bo'lishi kerak.

5.2. Boshqaruv a'zolarining yetarli darajada nazariy va amaliy bilimlarga ega ekanligi o'rnatilgan tartibda o'tkaziladigan attestatsiyalarning ijobiy natijalari bilan tasdiqlanadi.

5.3. Jamiat Boshqaruvining a'zosi quyidagilarni bilishi kerak:

- o'z ishini natija beradigan tarzda rejalashtirish va tashkil qilish;
- jamoada samarali ishslash;

- birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lgan ish va vazifalarni o‘z vaqtida bajarish va muhim masalalarda e’tiborli bo‘lish;
- o‘z professional fikrini dalil-isbotlar bilan bayon qilish va uni himoya qilish;
- asosiy muammolar, huquqlar va majburiyatlar masalalari bo‘yicha aksiyadorlar, Kuzatuv kengashining va Taftish komissiyasining a’zolari bilan muomala qilishda yetarli darajadagi o‘zaro tushunishni ta’minlash;
- nizoli vaziyatlarni turli usullar bilan hal etish;
- qabul qilinayotgan tashkiliy-boshqaruv qarorlarining shartlarini hushyorlik bilan baholash va oqibatlarini hisobga olish;
- professional topshiriqlarni hal qilish uchun kompyuter texnologiyalarini foydalanuvchi darajasida qo’llash;
- global kompyuter tarmog‘ida va korporativ axborot tizimida axborot bilan ishslash;
- ishga aloqador bo‘lgan muloqotni amalga oshirish: ommaviy chiqishlar, muzokaralar olib borish, majlislar o‘tkazish, ish yuzasidan yozishmalar, elektron kommunikatsiyalar.

6. BOSHQARUVNING ISH TARTIBI

6.1. Jamiyat Boshqaruvining majlisi oyiga kamida 1 (bir) marta o‘tkaziladi. Boshqaruv majlisi zaruriyat tug‘ilgan hollarda Boshqaruv raisi shaxsiy tashabbusiga ko‘ra, Kuzatuv kengashi yoki Taftish komissiyasining talabiga ko‘ra chaqirilishi mumkin.

6.2. Jamiyat Boshqaruvining majlisiga Boshqaruv raisi yoki uning birinchi o‘rinbosari yoxud ular bo‘lmagan taqdirda, ko‘rib chiqilayotgan masalaga tegishliligi bo‘yicha Boshqaruv raisining o‘rinbosarlaridan biri boshchilik qiladi.

6.3. Boshqaruv tomonidan Kuzatuv kengashi yoki aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qaror qabul qilishi uchun kiritilayotgan masalalar dastlabki tarzda Boshqaruv majlisida muhokama qilinishi mumkin.

6.4. Jamiyat Boshqaruvining majlisida masalalar hal etilayotganda Boshqaruvning har bir a’zosi bitta ovozga ega bo‘ladi. Jamiyat Boshqaruvning bir a’zosi o‘z ovozini Boshqaruvning boshqa a’zosiga berishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

6.5. Jamiyat Boshqaruvining majlisida qarorlar majlisda hozir bo‘lganlarning oddiy ko‘pchilik ovozi bilan hal qilinadi.

6.6. Jamiyat Boshqaruvi a’zolarining ovozlari teng bo‘lgan taqdirda, qaror qabul qilishda Jamiyat Boshqaruvi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

6.7. Jamiyat Boshqaruvi majlisini o‘tkazish uchun kvorum Jamiyat Boshqaruviga saylangan a’zolar umumiy sonining yetmish besh foizidan kam bo‘lmasligi kerak.

6.8. Jamiyat Boshqaruvining majlisida bayonnomma yuritiladi, Boshqaruv majlisining bayonnomasi majlis o‘tkazilganidan so‘ng besh kundan kechiktirmay tuziladi. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko‘rsatiladi:

- majlis o‘tkazilgan sana, vaqt va joy; majlisda hozir bo‘lgan shaxslar; majlisning kun tartibi;
- ovoz berishga qo‘yilgan masalalar, ular yuzasidan o‘tkazilgan ovoz berish

yakunlari; qabul qilingan qarorlar.

Bayonnomma raislik qiluvchi va Boshqaruv kotibi tomonidan imzolanadi.

6.9. Boshqaruv kotibi Jamiyat Boshqaruvi majlislari bayonnomalarini yuritilishini tashkil qiladi.

Jamiyat Boshqaruvi majlisi bayonnomalaridan ko‘chirmalar quyidagilarga beriladi:

a) Kuzatuv kengashining raisi va Taftish komissiyasining raisiga ularning talablariga muvofiq majburiy ravishda;

b) Faqat Boshqaruv raisining ruxsati bilan boshqa mansabdar shaxslarga va auditorga;

c) Amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslarga va organlarga (jumladan, davlat organlariga).

7. BOSHQARUV A’ZOLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

7.1. Boshqaruv a’zolari o‘z huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarini bajarishda Jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga, Jamiyat Ustaviga va mazkur Nizomga muvofiq harakat qilishlari lozim.

7.2. Boshqaruv a’zolari Jamiyatga nisbatan xolislikni saqlab turishlari lozim. Agar Boshqaruv a’zosi bitimdan moliyaviy manfaatdorlikka ega bo‘lsa, u ko‘rsatilgan masala bo‘yicha qaror qabul qilish boshlangunga qadar bu to‘g‘risida xabar berishga majbur. Bunda u muhokamada ham, bunday bitimni tuzishda qaror qabul qilishda ham ishtirok etmaydi.

7.3. Boshqaruv a’zolari Jamiyat mulkini tasarruf etishdan shaxsiy foyda ko‘rish harakatlariga yo‘l qo‘ymasliklari kerak.

7.4. Boshqaruv a’zolari a’zolik davrida faoliyati Jamiyat bilan raqobatlashadigan korxonalarni ta’sis etish yoki ta’sis etishda qatnashish, shuningdek, Jamiyat bilan raqobatlashadigan korxonalarda ishlash huquqiga ega emas.

7.5. Boshqaruv a’zosi Boshqaruvdagagi o‘z faoliyati davomida mazkur Nizomning 7.4.- bandida ko‘rsatilgan korxonalardagi o‘z ishtirokini to‘xtatishi va bu to‘xtatish to‘g‘risida Jamiyat Boshqaruvi va Kuzatuv kengashini xabardor qilmog‘i lozim.

7.6. Boshqaruv a’zolari Boshqaruvning u yoki bu qarorlarini qabul qilishda mazkur Nizomning 7.4.-bandida ko‘rsatilgan korxonalarni ustun qo‘yish huquqiga ega emaslar, shuningdek, buning uchun bevosita yoki bilvosita haq olish huquqiga ega emas.

7.7. Boshqaruv a’zolari Jamiyatdagi o‘z imkoniyatlaridan (mulkiy va nomulkiy huquqlardan, xo‘jalik faoliyati sohasidagi imkoniyatlardan, Jamiyat faoliyati va rejaliari to‘g‘risidagi ma’lumotlardan) shaxsiy boylik orttirish, yoxud o‘zi mehnat munosbatida bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar foydasiga foydalanishi mumkin emas.

7.8. Boshqaruv a’zosi quyidagi huquqlarga ega:

7.8.1. Boshqaruv majlisida shaxsan qatnashish, majlisda muhokama qilinayotgan masala yuzasidan reglament bilan ajratilgan vaqt doirasida so‘zga

chiqish;

7.8.2. Jamiatning kundalik ishlarining holati, uning ixtiyoriy davrdagi ishlab-chiqarish-xo'jalik va tijorat faoliyatining asosiy yakunlari, Jamiatning rivojlanish rejasи to'g'risidagi ishlab-chiqarish va moliyaviy axborotlarni haqqoniy va to'liq olish;

7.8.3. Boshqaruvning vakolat doirasiga kiradigan masalalarni hal qilish bo'yicha ishlarni boshqarish;

7.8.4. cheklanmagan miqdorda Jamiat Boshqaruvi a'zoligiga o'zini nomzod qilibko'rsatish va saylanish.

7.9. Boshqaruv a'zolari o'rtasidagi vazifalarni taqsimlash Boshqaruv raisining alohida huquqiga kiradi. Boshqaruv har bir a'zosining vazifalari uning Boshqaruvdagi ish hajmi va lavozim vazifalari bilan aniqlanadi. Boshqaruv raisi tomonidan taqdim qilingan vazifalarni taqsimlash to'g'risidagi taklif Boshqaruv majlisida tasdiqlanadi.

7.10. Boshqaruv a'zolarining majburiyatları:

7.10.1. vazifalarini o'z vakolatlari doirasida vijdonan, yuqori malaka darajasida, shuningdek, Jamiat manfaatlari uchun eng yaxshi usul deb hisoblagan usullarda amalga oshirish;

7.10.2. Jamiatning tijorat sirini saqlash.

8.JAMIYAT BOSHQARUV RAISI, BOSHQARUV A'ZOLARI HAMDA KOTIBINI RAG'BATLANTIRISH (MUKOFOTLASH)

8.1. Jamiat Boshqaruv raisi, boshqaruv a'zolari va kotibini o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun har chorakda rag'batlantirish (mukofotlash) puli oladi.

8.2. Jamiat Boshqaruv raisi, boshqaruv a'zolari va kotibini o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun har chorakda rag'batlantirish (mukofotlash) puli samaradorlikning yig'indi ko'rsatkichlari o'rtacha daraja, yetarli daraja va yuqori daraja bo'lganda amalga oshiriladi.

8.3. Aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilish qaroriga ko'ra jamiat Boshqaruv raisi, boshqaruv a'zolari o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun har chorakda rag'batlantirish (mukofotlash) puli to'lanishi bo'yicha qo'shimcha talablar belgilanishi mumkin.

8.4. Jamiat Boshqaruv raisi, boshqaruv a'zolari va kotibini o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun har chorakdagи rag'batlantirish (mukofotlash) puli jamiatning davr harajatlariga olinadi.

8.5. Jamiat Boshqaruv raisi mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 40 (qirq) baravari, boshqaruv a'zolari mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 20 (yigirma) baravari hamda boshqaruv kotibi mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 10 (o n') baravari miqdorida o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun har chorakdagи rag'batlantirish (mukofotlash) puli olish belgilanadi.

8.6. Jamiat Boshqaruv raisi, boshqaruv a'zolari va kotibiga jamiatning moliya-xo'jalik faoliyati yil yakunlari bo'yicha, jamiat korporativ boshqaruv tizimini baholash natijasi "qoniqarli" yoki "yuqori" deb topilgan taqdirda, jamiat aksiyadorlarining umumiyligi yig'ilishi qaroriga asosan Jamiatning tegishli moliyaviy yili uchun olgan sof foydasidan qo'shimcha haq va to'lovlar to'lanishi

mumkin.

8.7. Jamiyat Boshqaruv raisi, boshqaruv a'zolari va kotibining vakolati tugatilgan taqdirda, u bosh direktori bo'lgan davr uchun, o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun har chorakdagi va jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati yil yakunlari bo'yicha rag'batlantirish (mukofotlash) puli to'lanadi.

8.8. Mazkur Nizom boshqaruv a'zolari va kotibiga 2026-yil I choragidan boshlab tadbiq etiladi.

9. BOSHQARUV A'ZOLARINING JAVOBGARLIGI

9.1. Boshqaruv a'zolari Jamiyat oldida qonun hujjatlari, Jamiat Ustavi, mazkur Nizom va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

9.2. Bunda ovoz berishda qatnashmagan yoki Jamiyatga zarar yetkazuvchi qarorga qarshi ovoz bergen Jamiat Boshqaruvi a'zolari javobgarlikdan ozod qilinadi.

Agar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq bir necha shaxs javobgar bo'lsa, ularning Jamiat oldidagi javobgarliklari solidar hisoblanadi.

9.3. Boshqaruv a'zolari quyidagilar bo'yicha javobgardirlar:

9.3.1. Jamiatning xo'jalik faoliyatining natijalari, uning oldiga qo'yilgan vazifalarga erishish uchun;

9.3.2. Jamiat Boshqaruvi a'zolari Jamiat oldida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga va Jamiat Ustaviga, aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi qarorlariga va sudning qaroriga muvofiq, o'z vazifalarini bajarmasliklari yoki oqilona bajarmasliklari natijasida Jamiatga yetkazilgan zarar uchun javobgardirlar.